

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

BEKPO‘LATOV ULUG‘BEK RAHMATULLA O‘G‘LI

**JAMIYATDAGI SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINING
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Бекро‘латов Улуг‘бек Рахматулла о‘г‘ли

Жамияtdagi simmetriya va asimmetriya birligining ijtimoiy-falsafiy tahlili3

Бекпулатов Улугбек Рахматулла угли

Социально-философский анализ единства симметрии и асимметрии
в обществе.....33

Bekpulatov Ulugbek Rakhmatulla ugli

Social-philosophical analysis of the unity of symmetry and asymmetry
in society.65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

BEKPO‘LATOV ULUG‘BEK RAHMATULLA O‘G‘LI

**JAMIYATDAGI SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINING
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Fal291 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Huseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Turayev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “27” Dekabr soat «9:00» dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (788 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “10” Dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil “9” Dekabr dagi 50 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan global beqarorlik natijasida dunyo tartibotining buzilishi jarayonlari davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida tengsizlik, adolatsizlik, tabaqalanish, qutblanish, manfaatlar nomutanosibligi kabi turli salbiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bunday murakkabliklar mavjud asimmetrik o'zgarishlarni simmetriya tomon yo'naltirish va uni ijobiy boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish orqali ularning dinamik birligiga erishish va yangi dunyoviy tartibotni o'rnatish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, jamiyatning barcha sohalariga xos bo'lgan tartibot va tartibsizlik, turg'unlik va o'zgaruvchanlik, tenglik va tengsizlik, mutanosiblik va nomutanosiblik, barqarorlik va beqarorlik kabi jarayon va holatlarni simmetriya va asimmetriya birligi kontekstida ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, yetakchi ilmiy markazlar va tadqiqot institutlarida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy munosabatlardagi simmetriya va asimmetriya birligini ta'minlash orqali ijtimoiy tenglik va adolat muammolarini ijobiy hal etish hamda barqaror rivojlanishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish borasida izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Aniq va tabiiy fanlar rivojlanishida fundamentallik hamda universallik kasb etuvchi simmetriya va asimmetriya konsepsiyalarining endilikda ijtimoiy fanlarga ham chuqur kirib borishi va jamiyat hayotidagi dolzarb muammolarni yechishdagi metodologik imkoniyatlari ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tobora kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan jamiyat hayotining simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini ochib berish orqali barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan, manfaatlar muvozanatini ta'minlash imkonini beradigan uyg'un rivojlanish strategiyalarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalaridagi asimmetriya omillarini tan olish va ularni samarali strategiyalar asosida bartaraf etish orqali jamiyat hayotida adolat va tenglikni ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-madaniy faoliyatlari uchun birdek imkoniyatlarni yaratish va ijtimoiy davlatni barpo etishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. "Ijtimoiy davlat qurish g'oyasining negizida, avvalo, inson qadrini ulug'lash va aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ushbu g'oya har bir fuqaro uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratish, muhtojlarga ko'mak berish hamda aholi qatlamlari orasidagi tafovutlarni kamaytirish borasida samarali siyosat yuritadigan davlat modelini yaratishni taqozo etadi"¹. Shu bois jamiyat hayotining turli sohalarida mavjud bo'lgan tengsizlik va tafovutlarni bartaraf etish orqali tenglik va adolatni ta'minlash strategiyalarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishishning mamlakatimiz barqaror taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "O'zbekiston", 2024. – Б.62.

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 588-son “2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Simmetriya va asimmetriya konsepsiyalarining fan, madaniyat, san’at sohalari hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda ma’naviy-madaniy tizimlariga tatbiqi masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, International Society for the Interdisciplinary Study of Symmetry (Vengriya), Argonne National Laboratory (AQSh), University of California Santa Barbara (AQSh), National Center for Theoretical Sciences (Tayvan), Osaka University (Yaponiya), Institute for Social Research University of Michigan (AQSh), Department of Sociology University of Copenhagen (Daniya), Institute of Sociology University of Tokyo (Yaponiya), Institute for Social Research University of Michigan (AQSh), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya), Shubnikov Institute of Crystallography (Rossiya), Johannes Gutenberg University Mainz (Germaniya), Mississippi State University (AQSh), Max Planck Institute for Gravitational Physics (Germaniya), Center for Social Studies University of Coimbra (Portugaliya), University of Oxford – Mathematical Institute (Buyuk Britaniya), University of Cambridge – Department of Applied Mathematics and Theoretical Physics (Buyuk Britaniya), Institute of Mathematics of the National Academy of Sciences of Ukraine (Ukraina), Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat universiteti (Rossiya), O‘zbekiston

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://symmetry-us.com/>; <https://www.anl.gov/>; <https://www.ucsb.edu/>; <https://www.en.uni-muenchen.de/>; <https://www.univ-lille.fr/>; <https://www.lse.edu/>; <https://www.umich.edu/>; <https://www.utoronto.edu/>; <https://www.cbu.ca/>; <https://www.unn.ru/>; <http://library.fes.de/>; <https://www.ritsumeit.ac.jp/>; <https://www.cgt.columbia.edu/>; <https://www.cerhiip.univ-amu.fr> va boshqa elektron manbalar asosida tayyorlangan.

Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston tabiiy fanlar ilmiy-tekshirish instituti, Navoiy davlat universiteti (O‘zbekiston) tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Simmetriya va asimmetriyaning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy masalalari bo‘yicha turli darajadagi ilmiy natijalar olingan: fan, san‘at va madaniyat sohalarida simmetriya va asimmetriyaning tatbiqi masalalari (International Society for the Interdisciplinary Study of Symmetry, Vengriya); simmetriyaning matematik modellarini iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga joriy etishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolari (The centre for the mathematics of symmetry and computation, Avstraliya); simmetrik va asimmetrik o‘zaro ta’sirlarning tizim strukturasi shakllanishidagi o‘rni (Heriot-Watt University, Buyuk Britaniya); ijtimoiy tengsizlik, siyosiy va iqtisodiy tizimlardagi asimmetrik holatlarni baholash va ularni teng bo‘lmagan harakatchanlik konsepsiyasi asosida bartaraf etish masalalari (WZB Berlin Social Science Center, Germaniya); fanlararo tadqiqotlar asosida ijtimoiy tartibot va muvozanatni ta’minlashning asimmetrik yondashuvlarini ishlab chiqish masalalari (Max Weber Center for Advanced Cultural and Social Studies, Germaniya), ijtimoiy va siyosiy jarayonlar hamda davlat federal tuzilmalarida simmetrik va asimmetrik taqsimotni baholashning ko‘p o‘lchovli, ehtimolli usullarini yaratishning konseptual asoslari (Institute of Socio-Political Research, Rossiya); har qanday ijtimoiy tizimda gender tenglikni ta’minlash orqali adolatli jamiyat va barqaror taraqqiyotga erishishning zamonaviy paradigmalarni ishlab chiqish muammolari (The Global Center for Gender Equality, Kaliforniya); simmetriya va asimmetriya g‘oyalarining islom arxitekturasi va san‘atida tutgan o‘rni va ahamiyati (Massachusetts Institute of Technology, AQSh), (O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston); simmetriya va asimmetriyaning falsafiy-metodologik asoslari hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini konseptuallashtirish masalalari (Navoiy davlat universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda simmetriya va asimmetriyaning falsafiy jihatlariga oid quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: simmetriya va asimmetriyaga oid g‘oyalar butun fan tarixi evolyutsiyasi bilan parallel ravishda rivojlanganligini asoslash; materiyaning turli tashkilashish darajalarida simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo‘lish shakllarini konseptuallashtirish, olamni ilmiy bilishda simmetriya va asimmetriya tamoyillarining gnoseologik imkoniyatlarini hamda integratsiyalovchilik funksiyasini tizimli tahlil qilish; simmetriya va asimmetriyaning kategorial maqomini falsafiy jihatdan asoslash; simmetriya va asimmetriyaning estetik mohiyatini o‘rganish; simmetriya va asimmetriyaning zamonaviy fan paradigmalari (Sinergetika, Nochiziqli dinamika, Fraktallar nazariyasi v.k.) bilan o‘zaro dinamik aloqadorligini o‘rganish; aniq va tabiiy fanlarda yaratilgan simmetriya hamda asimmetriyaga oid nazariyalarni ijtimoiy hayotga tatbiq etishdagi metodologik muammolarni aniqlash va ularni yechish yo‘llarini ishlab chiqish; jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, madaniy sohalarida simmetriya va asimmetriya namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini, ular birligining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini o‘rganish orqali ularning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini ishlab chiqish va h.k.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jamiyatdagi tartib va tartibsizlik, barqarorlik va beqarorlik, tenglik va tengsizlik, adolat va adolatsizlik, garmoniya va disgarmoniya kabi juda keng spektrga ega bo'lgan simmetrik va asimmetrik xususiyatlarning o'zaro munosabati muammolariga oid jihatlarni Suqrot, Platon, Aristotel hamda Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Al-Movardiy, Ibn Rushd kabi mutafakkirlarning va G'arbiy Yevropa olimlaridan N.Makiavelli, J.Lokk, Sh.Montesky, J.Russo, G.Gegellarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida uchratish mumkin³. Xorijiy olimlardan Ivan Arreguin-Toft, Jozef Shrofl, Shon Maykl Koks, Tomas Pankratz, Herfrid Munkler, Allen S. Veiner, Thomas Hobbes, Barri Skott Zellen, Micevsk, Vipin Gupta, Josep Henrotin, Tanguy Struye de Svielandelarning tadqiqotlarida dunyoda sodir bo'layotgan turli tartibsizliklar va asimmetrik urushlarni bartaraf etishda o'zaro kelishuv va manfaatlar muvozanatini ta'minlash, globallashuv sharoitida madaniyatlararo transformatsiya jarayonlarining simmetrik va asimmetrik xususiyatlari hamda ular birligiga erishish masalalari o'z ifodasini topgan⁴.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan V.Gott, A.Pereturin, N.Ovchinnikov, A.Ursul, Yu.Urmansev, Yu.Abdulkadirov, V.Afanaseva, Yu.Xismatullina, X.Yagafarova, Y.Bitsin, O. Bergazova, N.Golubevalar materiya tuzilishining turli darajalarida simmetriya va asimmetriya xossalari o'rni, ularning ontologik va gnoseologik jihatlari, umum-ilmiy va falsafiy kategoriyalar bilan o'zaro aloqadorligi, fanlar transformatsiya jarayonlaridagi ahamiyati kabi masalalarni, N.Shustova, L.Podvoiskaya, I.Sanjarevskiy, O.Ivanova shaxs ijtimoiy moslashuvi, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida ijtimoiy uyg'unlik, murosas va tuzilmaviy mutanosiblikning o'rni va ularga erishish mexanizmlarini tadqiq etganlar⁵.

³Кессиди Ф.Х. Сократ. – СПб.: Алетея, 2001. – С.116.; Афлотун. Давлат: насрий дoston. – Т.: Янги аср авлоди, 2024. – 512 б.; Арасту. Аклоки кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2024. – 384 б.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. –320 б.; Boltayev M. Abu Ali Husain ibn Sinoning falsafiy-ijtimoiy ta'limoti. – Vuxarog.: Vuxogo, 2001. – В.59.; Туманян Т.Г. Абу-л-Хасан ал-Маварди: теоретик права и политический мыслитель // Вопросы философии. – Москва, 2016. -№ 8, – С.194-203.; Аверроэс (Ибн Рушд). Опровержение опровержения / пер. с араб. С.И.Еремеева. – Киев.: УЦИММ-Пресс, 1999. – С.543-589.; Макиавелли Н. Государь. – М.:Художественная литература, 1982. – С. 268-310.; Локк Д. Два трактата о правлении. – М.: Социум, 2014. – С.265-322.; Montesky Sh. Qonunlar ruhi haqida. – Т.: TRUST AND SUPPORT, 2024. – В.96-129.; Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты. – М.: Каноно - пресс, 1998. – С.299-363.; Гегель. Феноменология духа. – М.: Академический проект, 2008. – С. 668-714.

⁴Arreguin-Toft I. How the Weak Win Wars: A Theory of Asymmetric Conflict. – Cambridge.: Cambridge University Press, 2005. – P.90-161.; Schrofl J., Cox S.M., Pankratz T. Winning the Asymmetric War. – Frankfurt am Main.: Peter Lang, 2009. – P. 159-201.; Herfried Munkler. The New Wars. – Cambridge.: Polity Press, 2005. – P. 16-57.; Allen S. Weiner. Just War Theory the Conduct of Asymmetric Warfare, Daedalus // The Journal of the American Academy of Arts & Sciences. – Cambridge, 2017. - №1 (146). – P.59-70.; Thomas Hobbes. Leviathan (ed. J.C.A.Gaskin). – Oxford and New York.: Oxford University Press, 1996. – P.114-250.; Barry Scott Zellen. The Art of War in an Asymmetric World: Strategy for the Post-Cold War Era. – New York and London.: Bloomsbury, 2012. – P.76-134; Gupta V. Cultural Asymmetry between Societal Values and Practices: Extending Insights from Project GLOBE // Organizational Cultures: An International Journal. – Champaign (IL, USA), Common Ground Research Networks, 2024. -№24(2). –P. 87-109.; Henrotin J., Struye de Swielande T. Ontological-Cultural Asymmetry and the Relevance of Grand Strategies // Journal of Military and Strategic Studies. – Calgary, University of Calgary, 2004. - №7 (2). – P.60–85.

⁵ Готт В.С., Перетурин А.Ф. Симметрия и асимметрия как категории познания. Симметрия, инвариантность, структура (Философ. очерки). – М., 1967. – С. 3-71.; Урсул А.Д. Природа информации: философский очерк. – 2-е изд. – Ч., 2010. – С.158-175.; Урманцев Ю.А. Симметрия природы и природа симметрии. Философские и естественнонаучные аспекты. – М.: Институт компьютерных исследований, 2004. – 229 с.; Абдулкадыров Ю.Н. Роль принципа симметрии в научном познание: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Москва, 1997. – 34

O‘zbek olimlaridan O.Fayzullayev, M.Abdullayeva, B.To‘rayevlarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida simmetriya va asimmetriyaga oid qarashlar falsafiy-metodologik jihatdan talqin etilgan. J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev, Q.Nazarov, S.Choriyev, A.Xuseynova, X.Salomova, N.Safarova, N.Teshayev, B.Turdiyev jamiyat barqarorligiga ta’sir etuvchi diniy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy omillar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvofiqligiga erishish hamda ijtimoiy munosabatlardagi me’yorni saqlash, Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy-mafkuraviy islohotlar transformatsiyasi hamda jamiyat ideosferasida pragmatik tafakkurni shakllantirish jarayonlarida moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligining ahamiyatiga oid simmetriya va asimmetriyaning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga tegishli tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, jamiyatning simmetrik va asimmetrik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy adolat, tartib va tenglikni ta’minlashning prinsipial masalalari, falsafiy-huquqiy muammolari hamda ijtimoiy-siyosiy qonuniyatlari A.Xolbekov, S.Hamroyev, F.Berdiyevlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁶.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili va ularda tadqiq etilgan muammolar ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaning falsafiy masalalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida tizimli o‘rganilmaganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu dissertatsiya ishida

s.; Афанасьева В.В. Детерминированный хаос: феноменологической–онтологический анализ: Дис. ... док. филос. наук. – Саратов, 2002. – 353 с.; Хисматуллина Ю.Р. Симметрия, асимметрия и диссимметрия в структуре и развитии живой материи: Дис. ... кан. филос. наук. – Казан, 2005. – 178 с.; Ягафарова Х.Н. Симметрия и самоорганизация: от античной натурфилософии к современной науке: Дис. ... док. филос. наук. – Уфа, 2008. – 170 с.; Бицин Я.Х. Интерпретация античного принципа симметрии в современных научно-философских исследованиях: Дис. ... кан. филос. наук. – Москва, 2008. – 212 с.; Вергазова О.Б. Роль математического учения о симметрии и пропорциях в творчестве человека: Автореф. дис. ... кан. филос. наук. – Москва, 2008, – 20 с.; Голубева Н.А. Диссимметрическая концепция трансформации: онтологическое содержание: Дис. ... док. филос. наук. – Волгоград, 2014. – 322 с.; Шустова Н.Е. Социальная адаптация личности: Дис. ... кан. соц. наук. – Саратов, 1999. – 132 с.; Подвойская Л.Т. Гармония как тип отношений социальных общностей: Дис. ... кан. филос. наук. – Москва, 2000, – 135 с.; Черникова С.М. Социальный компромисс в системе стабилизации общества: Дис. ... док. филос. наук. – Волгоград, 2003. – 165 с.; Санжаревский И.И. Проблема пропорциональности в системе политических отношений общества: Дис. ... док. полит. наук. – Саратов, 2004. – 296 с.; Иванова О.В. Социальная гармония и пути её достижения: социально-философский анализ: Дис. ... кан. филос. наук. – Чита, 2011, – 162 с.

⁶ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. –Б.73-74; Абдуллаева М.Н. Философско-концептуальный анализ понятий симметрия и гармония в трудах мыслителей средневековья Центральной Азии // “Zamonaviy metodologiya kontekstida islom ilmiy madaniy va falsafiy merosi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Navoiy, 2022. –Б.4-8; Turayev B.O. Beruniy ontologiyasida olamlarning ko‘pligi va xilma-xilligi masalasi // Imom Buxoriy saboqlari. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. – Samarqand, 2014. -№ 4. –В. 10-13.; Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Т.: Чўлпон, 2018. – 722 б.; Назаров Қ. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси: Фалс. фан. док. ... дис. – Тошкент, 1997. – 316 б.; Choriyev A. Inson falsafasi: Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. – Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 416 b.; Хусейнова А.А. Янги Ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг асосий омиллари // Журнал правовых исследований. – Тошкент, 2022. -№.5. – Б.92-99.; Salomova H.Yu. Me’yorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati. – Buxoro.: Durdona, 2018. –196 b; Safarova N.O. Terrorizm. (Tarixiy-falsafiy tahlil). –Т.: Noshir. 2009. – 214 b.; Teshayev N.N. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ma’naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari: Fals. fan. dok (DSc)... dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 76 b.; Turdiyev B.S. Yangi O‘zbekiston jamiyati ijtimoiy taraqqiyoti ideosferasidagi o‘zgarishlar dinamikasi: Fals. fan. dok (DSc)... dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 80 b.; Холбеков А.Ж. Ўзбекистонда жамиятнинг демократлашуви жараёнида ижтимоий адолатни амалга ошириш муаммолари (сиёсий-социологик таҳлил). –Тошкент, 2001. –276 б.; Hamroyev S.S. O‘zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Fals. fan. bo‘y. fals. dok (PhD)... dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2023. – 56 b.; Berdiyev F.Sh. Zamonaviy jamiyat tizimida ijtimoiy tartib muammolarining falsafiy tahlili: Fals. fan. bo‘y. fals. dok (PhD)... dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2023. – 52 b.

jamiyatdagi simmetriya va asimmetriya birligini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishga va bu birlikni ta'minlashning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslashga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" (2022-2026-yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi simmetriya va asimmetriya birligining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

simmetriya va asimmetriyaga oid g'oyalarning rivojlanishi, jamiyat haqidagi g'oyaviy-nazariy qarashlar evolyutsiyasidagi o'rnini tadqiq etish;

simmetriya va asimmetriya kategoriyalarining nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish;

jamiyat hayotining turli sohalarida simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish;

iqtisodiy-siyosiy munosabatlarda simmetriya va asimmetriyaning ta'sirini baholash;

jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotida simmetrik va asimmetrik jarayonlarning ta'sirini asoslab berish;

ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik tuzilishini tahlil etish;

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni samarali amalga oshirishda simmetriya va asimmetriyaning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy tizimlarida kechayotgan simmetrik va asimmetrik jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti jamiyatdagi simmetriya va asimmetriya birligini, funksional mexanizmlari va Yangi O'zbekiston ijtimoiy islohotlari kontekstida ularning sinergetik uyg'unligini tadqiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik birligi, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

simmetriya va asimmetriya g'oyalari mazmunining shakllanishi va rivojlanish dinamikasi hamda ularning "tartib va xaos", "barqarorlik va beqarorlik", "muvofiqlik va nomuvofiqlik", "muvozanatlilik va nomuvozantlilik", "turg'unlik va o'zgaruvchanlik" haqidagi o'zaro antipodli kategoriyalarga oid g'oyaviy-nazariy qarashlar evolyutsiyasida tutgan o'zni asoslangan;

simmetriya va asimmetriya tamoyillarining tabiiy-ilmiy tafakkur doirasidan ijtimoiy jarayonlar maydoniga integratsiyalashuvi hamda ularni tuzilish va mohiyat jihatidan muvozanatga intiluvchi, ichki ziddiyatlar va tafovutlar bilan doimiy harakatda bo'lgan murakkab ijtimoiy voqelikni obyektiv bilish vositasi sifatidagi ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy shakllari jamiyatdagi "ijtimoiy

moslashuv”, “ijtimoiy uygʻunlik”, “ijtimoiy adolat” va “murosa” kabi kategoriyalar kontekstida aniqlashtirilgan;

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi simmetrik va asimmetrik hodisalarning oʻziga xos xususiyatlari (ijtimoiy mexanizmlari, tuzilmalari, rivojlanish qonuniyatlari) va ularning ziddiyatli aloqalari, bir-birini taqozo qiluvchilik, toʻldiruvchilik xususiyatlari dialektik kategoriyalar asosida ochib berilgan;

jamiyat simmetrik va asimmetrik hodisalar aralashmasidan (dissimmetriyadan) iborat boʻlgan, ochiq, oʻz-oʻzini tashkillashtiruvchi tizim ekanligi va undagi kichik miqdoriy oʻzgarishlar kutilmagan sifat oʻzgarishlarga aylanishi, klassik qarama-qarshiliklar “dixatomiyasi”ning oʻrniga ularning murakkab sintetik integratsiyalashuvi, bifurkatsiyalanuvchilik tabiati kabi nochiqliq dialektik jarayonlarning postklassik mohiyati oila, mahalla, milliy va global tuzilmalar fraktalligi kontekstida dalillangan;

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasidagi taʼlim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimida barcha uchun teng imkoniyatlarni yaratish, jamiyatdagi ijtimoiy-maʼnaviy muhit barqarorligini, iqtisodiy, siyosiy va ekologik muvozanatni taʼminlash, xalq xizmatidagi adolatli davlatni barpo etish kabi gʻoya va maqsadlarning simmetriya va asimmetriya birligi tamoyilining ijtimoiy munosabatlarni uygʻunlashtiruvchi, tartibga soluvchi, birlashtiruvchi, yoʻnaltiruvchi funksiyalari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-falsafiy bilimlarning tarixiy taraqqiyoti bilan simmetriya va asimmetriyaga oid gʻoyalarning evolyutsion manzarasi parallel ekanligi, har bir bosqichda olamning simmetrik va asimmetrik xususiyatlari haqidagi bilimlar mazmun va shakl jihatidan takomillashib borganligi eng qadimgi sivilizatsiyalardan tortib hozirgi kungacha boʻlgan ilmiy-falsafiy qarashlar rakursida ochib berilgan;

jamiyatni simmetriya va asimmetriyaning oʻzaro munosabatlaridan tashkil topgan ijtimoiy voqelik sifatida oʻrganishning falsafiy-metodologik asoslari ishlab chiqilib, ularning ijtimoiy olamdagi tartib va tartibsizlik, turgʻunlik va oʻzgaruvchanlik, statiklik va dinamiklik kabi jarayonlarni tizimli tahlil etishdagi imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

simmetriya va asimmetriya iqtisodda resurslar taqsimlanishi va moddiy neʼmatlardan foydalanish imkoniyatlaridagi tenglik va tengsizlik, siyosatda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi adolat va adolatsizlik, madaniyatda esa urf-odatlar, qadriyatlar, anʼanalardagi oʻxshashlik, uygʻunlik va uning buzilishi kabi antipodli holatlar, hodisa va jarayonlar sifatida namoyon boʻlishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan;

“shaxs – jamiyat – davlat” munosabatlaridagi institutsional oʻzaro taʼsirni optimallashtirishda manfaatlar oʻrtasidagi simmetrik qaror qabul qilish mexanizmi, axborot almashishning ochiq manbalari, davlat xizmatlarining tenglik tamoyili asosida taqdim etilish mezonlari ochib berilgan hamda konfliktlarni yumshatish, qarama-qarshi fikrlarni muvozanatlash, muloqot madaniyatini tiklash, ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ assimmetriyalarni cheklash, yoshlar ongida tahliliy fikrlash va maʼnaviy immunitetni kuchaytirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati har qanday jamiyatda sodir bo'ladigan tartibot va xaos, barqarorlik va beqarorlik, turg'unlik va o'zgaruvchanlik kabi jarayonlarning tub mohiyatini anglash, ushbu vaziyatlarda barqaror rivojlanishning eng maqbul konsepsiyalarini ishlab chiqish bilan muayyan nazariy hissa qo'shishi, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalardagi islohotlar samarasini oshirishda xalq va davlat manfaatlarini muvofiqligi tamoyiliga alohida e'tibor qaratilishini tadqiq etuvchi nazariy-fundamental tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalardan ma'naviy, ma'rifiy targ'ibot markazlarining faoliyatini takomillashtirishda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi loyihalarni samarali amalga oshirishda, siyosiy partiyalar faoliyatini adolat mexanizmlar asosida rivojlantirishda, gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda, "Falsafa", "Davlat va huquq nazariyasi va tarixi", "Ijtimoiy falsafa", "Madaniyatshunoslik", "Siyosatshunoslik", "Sotsiologiya" kabi fanlar uchun o'quv dasturlari mazmuni takomillashtirish orqali o'quv adabiyotlarini tayyorlashda, yoshlar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatdagi simmetriya va asimmetriya birligini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

simmetriya va asimmetriya g'oyalari mazmunining shakllanishi va rivojlanish dinamikasi hamda ularning "tartib va xaos", "barqarorlik va beqarorlik", "muvofiqlik va nomuvofiqlik", "muvozanatlilik va nomuvozantlilik", "turg'unlik va o'zgaruvchanlik" haqidagi o'zaro antipodli kategoriyalarga oid g'oyaviy-nazariy qarashlar evolyutsiyasida tutgan o'rniga oid ilmiy yangilikdan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining yoshlar hayotida yuzaga kelayotgan turli ma'naviy ziddiyatlar, individualizm, manfaatparastlik, madaniyatsizlik, ijtimoiy befarqlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurashish, ularda ma'naviy-mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan amaliy loyihalar samaradorligini oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 25-iyundagi 2-13-21-3529-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar dunyoqarashini milliylik va zamonaviylik uyg'unligi asosida shakllantirish hamda jamiyat va davlat manfaatlariga muvofiq faoliyat olib boradigan yoshlarning tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sifati va mazmunini boyitishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilgan;

simmetriya va asimmetriya tamoyillarining tabiiy-ilmiy tafakkur doirasidan ijtimoiy jarayonlar maydoniga integratsiyalashuvi hamda ularni tuzilish va mohiyat jihatidan muvozanatga intiluvchi, ichki ziddiyatlar va tafovutlar bilan doimiy harakatda bo'lgan murakkab ijtimoiy voqelikni obyektiv bilish vositasi sifatidagi ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy shakllari jamiyatdagi "ijtimoiy moslashuv", "ijtimoiy uyg'unlik", "ijtimoiy adolat" va "murosa" kabi kategoriyalar kontekstidagi umumiy mazmun va mohiyatiga doir ilmiy xulosa va takliflardan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan 5.1.3. Saylovoldi dasturining Mahalliy davlat hokimiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'nalishida keltirilgan vazifalarni bajarishda foydalanilgan ("Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2025-yil 23-iyundagi 02/02-63-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi simmetrik va asimmetrik hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari (ijtimoiy mexanizmlari, tuzilmalari, rivojlanish qonuniyatlari) va ularning ziddiyatli aloqalari, bir-birini taqozo qiluvchilik, to'ldiruvchilik xususiyatlari dialektik kategoriyalar asosida aniqlanganligiga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan IL-4821091548-son "Zamonaviy tahdid va da'vatlar sharoitida O'zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy-madaniy va aksiologik asoslari" (2022-2024 yy) mavzusidagi fundamental loyiha ishida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 25-iyundagi 04/11-7931-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar ma'naviyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllantirish tizimini takomillashtirishga metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

jamiyat simmetrik va asimmetrik hodisalar aralashmasidan (dissimmetriyadan) iborat bo'lgan, ochiq, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim ekanligi va undagi kichik miqdoriy o'zgarishlar kutilmagan sifat o'zgarishlarga aylanishi, klassik qarama-qarshiliklar "dixatomiyasi"ning o'rniga ularning murakkab sintetik integratsiyalashuvi, bifurkatsiyalanuvchilik tabiati kabi nochiziqli dialektik jarayonlarning postnoklassik mohiyati oila, mahalla, milliy va global tuzilmalar fraktalligi kontekstida dalillanganligiga oid ilmiy yangiligidan "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025 yil fevral-iyun oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 20-iyundagi 05-09-968-son ma'lumotnomasi). Natijada, ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilikka insonlar o'rtasidagi munosabatlar muvofiqligini ta'minlash, xalq va davlat manfaatlariga uyg'un holda ijtimoiy faoliyat yurituvchi shaxslarni tarbiyalash, globallashtirish natijasida madaniyatlararo muloqotlardagi muvozanatni saqlashga bag'ishlangan dasturlarni mazmunini boyitishga, sifat jihatidan zamon talablari doirasida keng auditoriyani yig'ishga xizmat qilgan;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimida barcha uchun teng imkoniyatlarni yaratish, jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini, iqtisodiy, siyosiy va ekologik muvozanatni ta’minlash, xalq xizmatidagi adolatli davlatni barpo etish kabi g‘oya va maqsadlarning simmetriya va asimmetriya birligi tamoyilining ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtiruvchi, tartibga soluvchi, birlashtiruvchi, yo‘naltiruvchi funksiyalari asoslab berilganligiga oid ilmiy yangilik va xulosalaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma’rifat targ‘iboti” 17-bandi “Ilmiy-metodologik jihatdan asoslangan, tarixiy tajriba va zamonaviy tahlillar hamda yuksak maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirgan “Kuchli ma’naviyat bilan Yangi O‘zbekiston sari” nomli yangi ilmiy-ommabop qo‘llanmaning konsepsiyasini ishlab chiqish” mavzusida targ‘ibot ishlarini o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 25-iyundagi 10/373-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatdagi simmetriya va asimmetriya birligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta jumladan, 7 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, ikkita monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 14 ta ilmiy maqola (12 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 224 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflab berilgan.

Dissertatsiyaning “**Jamiyatdagi simmetriya va asimmetriya birligiga oid g‘oyalarning evolyutsiyasi va metodologik masalalari**” deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaga oid g‘oyalarning rivojlanish dinamikasi hamda ularning tabiiy-ilmiy bilimlar sohasidan ijtimoiy-falsafiy fikrlar maydoniga integratsiyalashuvi falsafiy-metodologik jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu bobda simmetriya va asimmetriya g‘oyalarning “ijtimoiy

tenglik”, “ijtimoiy moslashuv”, “ijtimoiy uygʻunlik”, “ijtimoiy adolat” va “murosa” kabi kategoriyalar bilan dialektik aloqadorligi ochib berilgan.

Dissertant insoniyat sivilizatsiyasi tarixining eng qadimiy oʻchoqlaridan biri boʻlgan Qadimgi Misr xalqlarining falsafiy va ijtimoiy qarashlari markazida turuvchi “Maʼat” tushunchasi mohiyatan tartibni, adolatni, uygʻunlikni, “Isfet” tushunchasi esa ushbu holatlarning ziddini anglatishini, Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasida olamdagi barcha hodisalar va mavjudotlar oʻrtasidagi uygʻunlik, muvozanat va barqarorlik hamda ularning buzilishiga oid qarashlar simmetriya va asimmetriya namoyon boʻlishining eng muhim xususiyatlarini oʻzida aks ettirishini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab beradi. Shuningdek, dissertant Qadimgi Xitoy falsafasidagi Yin va Yangning, Zardushtiylik dinidagi ezgulik va yovuzlikning oʻzaro qarama-qarshi kurashi va birligi haqidagi taʼlimotlarida simmetriya va asimmetriyaning dialektik tabiatiga dalolat qiluvchi bir qator jihatlarni aniqlaydi.

Dissertant antik davr faylasuflaridan Suqrot, Platon, Aristotellarning jamiyat hayotidagi adolat va adolatsizlik, ijtimoiy tenglik va tengsizlik haqidagi qarashlarida simmetriya va asimmetriyaning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid muhim fikrlarni keltiradi. Bundan tashqari, dissertant buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida simmetriya va asimmetriyaga oid gʻoyalar axloqiy, madaniy va ijtimoiy tuzilmalarning uygʻunligi va nomuvofiqligi sifatida talqin qilinsa, Al-Movardiy oʻzining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida davlat va fuqarolar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar muvozanatiga erishish hamda qonun oldida barchaning tengligini taʼminlash ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning asosiy mezonlari ekanligini asoslab beradi.

Gʻarbiy Yevropalik olimlardan Nikollo Makiavelli jamiyatdagi ijtimoiy tartibot va barqarorlikni saqlashda siyosiy kuchlar(hokimiyat)ning ahamiyatini, Jon Lokk hokimiyat va mulkchilik boʻlinishining jamiyat taraqqiyotiga taʼsirini, Sharl Lui de Montesky har qanday jamiyat taraqqiyotiga fuqarolarning teng huquqliligini taʼminlash orqali erishish mumkinligini, bu esa faqatgina qonunlar orqali amalga oshirilishini, Jan-Jak Russo har qanday jamiyat kelishilgan ijtimoiy shartnoma asosidagina mavjud boʻla olishi va rivojlanishini, Immanuil Kant ijtimoiy muvozanatga axloqiy tamoyillar, ijtimoiy tenglik va erkinlik orqali erishish mumkinligini, Gegel jamiyat taraqqiyotiga qarama-qarshiliklar kurashi va ularning birligi orqali erishilishini asoslashga harakat qilganliklari dissertatsiya tadqiqotida batafsil asoslab berilgan.

Dissertant zamonaviy davrda yashagan faylasuf Gerbert Spenserning ijtimoiy evolyutsiya gʻoyalarida simmetriya va asimmetriyaga oid jihatlar oʻziga xos maʼno kasb etishini izohlab, uning biologik organizmlardagi umumiy jarayonlar jamiyat uchun ham xos ekanligi haqidagi daʼvosini va simmetriyani jamiyatdagi barcha aʼzolarining teng huquqliligi, asimmetriyani esa jamiyatdagi ixtisoslashuv va tabaqalanish sifatida talqin etilganligini koʻrsatib beradi. Bundan tashqari, dissertant ispan faylasufi, madaniyatshunosi va sotsiologi Xose Ortega y Gassetning “Omnia qoʻzgʻoloni” asarida ijtimoiy simmetriyaga oid jihatlar jamiyatda teng imkoniyatlar va intellektual yetuklikning barcha qatlamlarga tarqalgan holati sifatida qaralganligini, ijtimoiy asimmetriya elitalar va omnia oʻrtasidagi madaniy, ilmiy va masʼuliyat nomutanosibliigi sifatida izohlanganligini asoslab bergan. Djon

Roulzning “Adolat nazariyasi” asarida⁷ ijtimoiy simmetriya adolat va tenglik tamoyillari sifatida namoyon bo‘lsa, iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlarning tengsiz va nomutanosib taqsimlanishi, ijtimoiy imkoniyatlar o‘rtasidagi farqlar va tafovutlar mohiyati jihatidan ijtimoiy asimmetriyani ifodalashi dissertatsiyada batafsil asoslanadi.

Dissertant simmetriya tushunchasini falsafiy jihatdan “*biror tizim yoki hodisadagi elementlar, qismlar orasidagi o‘zaro muvozanat, uyg‘unlik, muvofiqlik, tenglik mavjudligi*” deb ta’riflaydi. Simmetriyaning bunday jihatlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy imkoniyat yoki shu kabi belgi va xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro barqarorlikni anglatadi. Demak, ushbu rakursda qaralsa, simmetriya jamiyatdagi turli (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va h.k.) imkoniyatlarning tengligi bilan chuqur aloqadorlikka va birlikka ega bo‘ladi. Masalan, demokratik jamiyatda yashaydigan fuqarolarning barchasi qonun oldida teng huquqli hisoblanadi (siyosiy simmetriya). Shuningdek, simmetriyaning yuqoridagi jihatlarning inkorini o‘zida mujassamlashtirgan asimmetriyani “*biror ijtimoiy tizim yoki hodisadagi elementlar, qismlar orasidagi mutanosiblikning, uyg‘unlik va muvofiqlikning yo‘qligini yoki ular o‘rtasidagi farqlar mavjudligi*” deb ta’riflaydi.

Dissertatsiyada adolat va simmetriya kategoriyalari ko‘plab umumiyliklarga ega bo‘lsa-da, ular orasida ma’lum bir farqlar ham mavjudligi asoslab berilgan. Adolat insoniy munosabatlarning axloqiy va huquqiy jihatlari belgilab bersa⁸, ijtimoiy simmetriya bu munosabatlarning strukturaviy va tizimli uyg‘unligini ta’minlaydi. Ijtimoiy simmetriya va asimmetriya jamiyatdagi turli guruhlar, qatlamlar va tizimlar o‘rtasidagi muvozanatli, uyg‘un va barqaror munosabatlarni anglatuvchi garmoniya tushunchasi bilan o‘zaro aloqadordir. Ijtimoiy garmoniya jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun asosiy shartlardan biri bo‘lib, ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaning o‘zaro aloqasi orqali shakllanadi. Simmetriya - tenglik va adolatni, asimmetriya esa nomutanosiblik va tengsizlikni ifodalaganligi uchun, ushbu ikki tushuncha ijtimoiy garmoniyaning shakllanishi va rivojlanishiga turli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, zamonaviy davrda simmetriya va asimmetriya jamiyat rivojining muvozanat va o‘zgaruvchanlik tamoyillari sifatida talqin etiladi. Simmetriya barqarorlik, tenglik va adolatni anglatadi, asimmetriya esa rivojlanish, o‘zgarish va innovatsiyalarni harakatlantirish manbaidir. Ijtimoiy taraqqiyot esa aynan ushbu qarama-qarshiliklarning o‘zaro uyg‘unligida tashkillashishi g‘oyasi ustuvorlik qiladi. Ijtimoiy tizimning har bir tarkibiy elementi o‘zining funksional vazifasidan qat’i nazar, umumiy ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan mezonlar asosida shakllanadi va aynan shu mezonlar ijtimoiy tartib, tenglik, muvozanat, mas’uliyat, iyerarxiya va erkinlik kabi kategoriyalarning o‘zaro aloqadorligini belgilaydi. Simmetriya jamiyatning barqarorligini, rivojlanish tamoyillarini va muvofiqlashtirilgan ijtimoiy munosabatlarini ifodalasa,

⁷ Qarang: Ролз Дж. Теория справедливости / пер. с англ. В.В. Целищева. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 536 с.


⁸ Назаров К. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-қитоб. – Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти, 2022. –Б.35.

asimmetriya rivojlanishning ichki dinamikasi, ijtimoiy farqlanishning tabiiyligini, yangilanishning zarur mexanizmlarini yuzaga chiqaradi.

Dissertatsiyaning **“Jamiyat iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy sohalarida simmetrik va asimmetrik jarayonlarning dialektik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida simmetriya va asimmetriyaning ijtimoiy mohiyati dialektika qonunlari va kategoriyalari kontekstida tahlil etilib, ularning jamiyat iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy sohalarida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Simmetriya va asimmetriya tushunchalari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan hamda bir-birini to‘ldiruvchi va taqozo etuvchi kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Simmetrik deb qaralgan har qanday ijtimoiy tuzumda tenglikni ta’minlashni real hayotda amalga oshirishdagi obyektiv va subyektiv omillar, to‘siqlar, shuningdek institutsional nomukammalliklar, madaniy yoki tarixiy tafovutlar natijasida turli daraja va xarakterdagi asimmetriya elementlari mavjud bo‘ladi yoki shakllanadi. Jamiyat hayotida yuzaga kelgan yoki mavjud bo‘lgan asimmetriyani – ijtimoiy simmetriyaga erishish uchun turtki, simmetriyani esa ijtimoiy asimmetriyani bartaraf etishga yo‘naltirilgan harakat mahsuli sifatida qarash kerak.

Dissertatsiyada ijtimoiy simmetriya tarixiy rivojlanishning muhim bosqichlarini anglatishi, bu bosqichlarda ijtimoiy institutlar, madaniy qadriyatlar va me’yorlar o‘zining nisbiy barqarorligini saqlashi, shuningdek, har qanday nisbiy simmetrik deb atalgan tizimda vaqt o‘tishi bilan turli daraja va xarakterdagi asimmetrik holatlar masalan, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, mafkuraviy ziddiyatlar, siyosiy bosimlar, iqtisodiy nomutanosibliklar shakllanishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Jamiyat taraqqiyotida inkorni inkor (tezis-antitezis-sintez) qonunini simmetriya va asimmetriya kontekstidagi quyidagi tarzda tasvirlangan (Qarang: 1-rasm):



1-rasm. Inkorni inkor qonunidagi “tezis-antitezis-sintez” jarayonining simmetriya va asimmetriya kontekstidagi talqini

Tadqiqotda miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga aylanishi qonuni simmetriya va asimmetriya nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ushbu tamoyillarning ijtimoiy o‘zgarishlarni yanada chuqurroq anglashdagi imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Dissertantning fikricha, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy adolat, imkoniyatlar tengligi, moddiy resurslarning oqilona va samarali taqsimlanishi jamiyatda ma’lum bir simmetrik tuzilmani ta’minlaydi. Jamiyat hayotining bu bosqichida mavjud tizim o‘z holicha funksional, tartibli va mo‘tadil bo‘ladi. Bu miqdoriy o‘zgarishlar darajasi hali sifatga aylanishi uchun yetarli bo‘lmaganligini anglatadi ya’ni ilm-fanning rivojlanishi, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishi, axborotlar almashinuvining jadallashuvi sodir bo‘lsa-da, jamiyat hali ham eski struktura holatida mavjud bo‘lib qoladi. Biroq dialektik taraqqiyotning

mexanizmiga binoan “ijtimoiy asimmetriya vujudga kelib, resurslar notekis taqsimlanadi, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida tafovut kuchayadi, axborotlar noto‘g‘ri tarqatiladi yoki monopollashadi”⁹. Natijada jamiyatdagi muvozanat izdan chiqadi, ziddiyatlar kuchayadi, mavjud tizim zamonaviy taraqqiyot mezonlariga javob bera olmay qoladi va bu holatda miqdoriy o‘zgarishlar o‘zining “to‘lib-toshgan” bosqichiga yetib keladi. Bu bosqichda har qanday jamiyatda sifat o‘zgarishlar zarurati hosil bo‘lib, yangi holatdagi ijtimoiy tartibot, boshqaruv uslubi, qadriyatlar tizimi vujudga keladi. Bu o‘zgarish doimo “og‘riqli”, murakkab, ziddiyatli kechadi. Ammo aynan shu asimmetrik inqiroz nuqtasida boshqa shakl va mazmundagi yangi simmetriya shakllana boshlaydi. “Yangi simmetriya shakllangan tizimda yangi ijtimoiy tuzilma, yangilangan qonunchilik, isloh etilgan iqtisodiy va siyosiy tizimlar jamiyatda yangi barqarorlik va muvozanatni ta’minlaydi”¹⁰.

Dissertant jamiyat hayotining iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy sohalarida simmetriya va asimmetriya namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tizimli tahlil etgan. Xususan, jamiyatning iqtisodiy hayotidagi simmetriya va asimmetriyaga oid jihatlar sifatida resurslar taqsimlanishida, moddiy ne’matlardan foydalanishdagi imkoniyatlarda tenglik va tengsizlikni, muvozanat va muvozanatsizlikni qaraydi. “Jamiyatning har bir fuqarosi yoki guruhi ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, bank xizmatlari va boshqa iqtisodiy faoliyatlarda bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishi iqtisodiy simmetriyaning muhim elementlari hisoblanadi”¹¹. Har qanday jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida biror darajadagi simmetrik jihatlar bilan bir qatorda nomutanosiblik, asinxroniya, divergensiya, differentsiatsiya, muvozanatsizlik, beqarorlik holatlari ham mavjud bo‘lishiga e’tibor qaratib, iqtisodiy tizimlarning bunday xususiyatlar o‘rtasidagi ichki dinamik bog‘liqlikning mavjudligini iqtisodiy asimmetriyaning namoyon bo‘lish shakllari sifatida tahlil etgan.

Jamiyat hayotining siyosiy sohasida ham simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish murakkab siyosiy jarayonlarni adekvat izohlashda hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi siyosiy islohotlarni tizimli olib borishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berishda muhim hisoblanadi. Siyosiy sohada simmetriya va asimmetriyani hokimiyatning boshqaruv shakllari (avtokratik va demokratik) tahlili asosida chuqur anglash imkoniyatlari mavjud. Avtokratik boshqaruv shaklida hokimiyat yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi va aynan shu jihat siyosiy asimmetriya namoyon bo‘lishining muhim belgisi hisoblanadi. Hokimiyatni demokratik boshqaruv shakllari esa odatda siyosiy simmetriyaga asoslanadi, chunki fuqarolarning teng huquqliligi va boshqaruvda ishtiroki ta’minlanadi. Demokratiya atamasi odatda “... ijtimoiy va iqtisodiy nomutanosiblikni, ayniqsa xususiy mulkning teng taqsimlanmaganligi sababli yuzaga keladigan nomutanosiblikni minimallashtirishga harakat qiladigan har

⁹John C. Foehl. Dialectical asymmetry: commentary on an article by peter shabad // Psychoanalytic Inquiry. – Philadelphia, USA. – 2017. - № 6(37), – P.375.

¹⁰Park O. Concerning Community Symmetry // Ecology. – USA. – 2015. — №2, – P. 165.

¹¹Мельников В.А. Принципы симметрии в экономике // Международный научно-исследовательский журнал. – М. – 2025. - № 1 (103). – С. 27.

qanday siyosiy yoki ijtimoiy tizimni tavsiflash uchun ishlatiladi”¹². Ushbu ta’rifdan ko‘rinadiki, demokratiya va uning tamoyillariga asoslangan holda boshqariladigan tizimda simmetriyaga intilish, asimmetriyani minimallashtirishga harakat mavjud.

Dissertant jamiyat hayotining siyosiy sohasidagi simmetriya va asimmetriyani biror davlat boshqaruvi shakllari darajasidan xalqaro munosabatlar darajalariga tomon kengroq spektrda qaralsa, ularning murakkab dialektik tabiati yanada yaqqolroq namoyon bo‘lishini asoslagan. Jumladan, dunyodagi eng nufuzli xalqaro tashkilot hisoblangan BMTga a’zo davlatlarning teng huquqliligi siyosiy simmetriya tamoyiliga asoslangan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, BMTga a’zo davlatlarning Bosh Assambleyada ovoz berish huquqi mavjud bo‘lib, aynan ushbu jihat xalqaro munosabatlarda tenglik, adolat va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, BMT Xavfsizlik Kengashida veto huquqiga ega bo‘lgan beshta doimiy a’zolar (AQSh, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya va Fransiya) boshqa davlatlardan ustunlikka ega bo‘lib, bu xalqaro munosabatlarda siyosiy asimmetriyani keltirib chiqaradi.

Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, xalqaro munosabatlarda simmetriya barqarorlik va tinchlikni global miqyosda ta’minlash uchun zarur bo‘lsa, asimmetriya qudratli davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladi va ularning ta’sir sferasini doimiy oshirib borishni nazarda tutadi. Bunday asimmetrik siyosat olib borish ijtimoiy-falsafiy jihatdan kuchlar orasidagi mutanosiblik va muvozanatni boshqarish muammolarini yanada dolzarblashtiradi. Bunday sharoitda xalqaro munosabatlarda simmetriyaga intilish va unga qat’iy amal qilish global dunyoning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi. Har qanday jamiyatning yuksalishi, taraqqiyoti va barqarorligi nafaqat iqtisodiy-siyosiy salohiyat bilan, balki avvalo uning ma’naviy asoslari bilan belgilanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”¹³.

Tadqiqotda jamiyat hayotidagi ma’naviy simmetriya – inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, shaxsiy va umumiy manfaatlar uyg‘unligi, qadriyatlar birligi, axloqiy me’yorlarning keng qamrovliligi, ruhiy osoyishtalikdir. Shuningdek, simmetriya ijtimoiy-falsafiy jihatdan ma’naviy muvozanat, jamiyatdagi barqaror axloqiy normalar, milliy va madaniy totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ma’naviy barqarorlik vositasida namoyon bo‘ladi. Masalan, ota-onaga hurmat, milliy urf-odatlariga ehtirom, ilmga rag‘bat, ezgulik va halollik kabi qadriyatlar jamiyatda ma’naviy simmetriyani shakllantiradi. Jamiyatning ma’naviy hayotida o‘zgarish, yo‘qotish va inqirozlar ham yuzaga keladi va bunday asimmetrik jarayonlar vaqtinchalik bo‘lsa-da, jamiyatning ma’naviy tamoyillarini zamon va makon

¹² Багдасаров Ф.К. Авторитарные и демократические тенденции в политической жизни современной России: Автореф. дис. ... канд. полит. наук. – Москва, 2010. – 26 с.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari” bo‘yicha o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1053>

nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish va yangilash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Asimmetriya jamiyatning ma‘naviy rivojlanish jarayonida qarama-qarshiliklar, nomutanosibliklar sababli yangidan-yangi qadriyatlar hamda madaniyat shakllarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Dissertantning fikricha, jamiyatning rivojida madaniyat ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, ushbu sohadagi simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo‘lish shakllarini hamda ularning o‘zaro munosabatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniyatlar integratsiyalashuvi sharoitida madaniy rivojlanish muammolari yechimiga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi. Jamiyat hayotining madaniy sohasidagi simmetriya – jamiyatdagi madaniyatlararo muvozanat, barqarorlik va uyg‘unlikni ifodalovchi kategoriya va shu bilan birga u ma‘lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan uzoq yillik an‘anaviy qadriyatlar tizimi va ijtimoiy-axloqiy me‘yorlarni, orzu-umid, maqsad va muddalarni avloddan-avlodga uzatilishini ham xarakterlaydi. Bunga misol qilib, o‘zbek milliy qadriyatlarining (mehmondo‘stlik, bolajonlik) saqlanib qolinishini va bu madaniy xususiyatlarning insonlar ijtimoiy hayotida o‘ziga xos tarzda va universallik sifatida namoyon bo‘lishini aytishimiz mumkin. Ushbu jihatlar har bir jamiyatning milliy o‘zligini saqlab qolish borasidagi amaliy harakatlarini amalga oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, “hozirgi kunda jahon taraqqiyotining ustuvor xususiyatlariga aylanayotgan globallashuv jarayonlari, keng miqyosli integratsiya, fan-texnika hamda axborot texnologiyasining beqiyos rivojlanishi sharoitda milliy o‘zlikni saqlash, xalqimizning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga omon-esson yetkazish, miqyosi har yili ikki marta ko‘payib borayotgan son-sanoqsiz axborotlar dunyosida adashib qolmaslik, bu borada ham “oq va qorani ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”¹⁴.

Jamiyat hayotining madaniy sohasida simmetriya bilan birgalikda asimmetriya ham mavjud bo‘lib, u – madaniyatlar tizimidagi xilma-xillik, nomutanosiblik va o‘zgarishlarni ifodalaydi. Globallashuv jarayonida g‘arb madaniyati (asosan AQSh va Yevropa davlatlarining qadriyatlari va turmush tarzi) jahon madaniyatiga katta ta‘sir o‘tkazmoqda. Kino, musiqa, moda, texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali bu madaniyatlar tez sur‘atlarda boshqa jamiyatlarga kirib bormoqda. G‘arb madaniyatining kuchli iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari, shuningdek ijtimoiy tarmoqlari va global media platformalari ularning yaqqol dominantligini oshiradi, bu esa mahalliy madaniyatlarning yo‘qolishiga olib kelishi ham mumkin. G‘arb pop-musiqasi va kinoindustriyasining xalqaro auditoriya uchun standartga aylanishi natijasida ko‘plab mahalliy madaniyatlar, xususan, urf-odatlar, xalq san‘ati yoki qo‘shiqchilikning global maydonga chiqish imkoniyatiga ega emasligi tufayli madaniy asimmetriya toboro oshib bormoqda. Dissertantning fikricha, bunday muammolarni yechish va madaniy rivojlanishga erishish uchun simmetriya va asimmetriya o‘rtasidagi dinamik aloqalar strategik boshqarilishi zarur. Simmetriya

¹⁴Nazarov Q. Ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya – barkamol avlodni shakllantirish omili // Ma‘naviy barkamol yoshlar Yangi O‘zbekiston bunyodkori: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2024. – B.10.

barqarorlikni, asimmetriya esa o'zgarish va innovatsiyalarni ta'minlovchi kuch sifatida bir-birini to'ldiradi. Madaniy rivojlanish bu ikki tamoyilning uyg'unlashuvi va muvozanatidan kelib chiqadi. Jamiyatda ushbu jarayonni anglash va boshqarish orqali o'z madaniy merosini saqlab qolgan holda yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilish imkonini beruvchi strategiyalarni ishlab chiqish hamda hayotga izchil tadbiriq etish har bir mamlakat barqaror taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, jamiyatdagi simmetriya va asimmetriyaning dialektik tahlili jamiyat taraqqiyoti jarayonini tenglik va tafovutlar o'rtasidagi murakkab dinamik uyg'unlik sifatida teran anglash imkonini beradi. Natijada ijtimoiy tenglik va tengsizliklarni eng maqbul nisbatlargacha uyg'unlashtirish, kelajak strategiyalarini belgilashda muhim falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi. Har qanday ijtimoiy tizim o'zining barqarorlikni ifodalovchi simmetrik tuzilmalariga tayanar ekan, shu bilan birga o'zgarish, yangilanish va energiyaning manbai bo'lgan asimmetrik jarayonlarga ham ehtiyoj sezadi. Shu ikki hodisaning dialektik birligi ijtimoiy munosabatlarni, me'yoriy tartib mexanizmini va ijtimoiy tizimning funksional butunligini ta'minlaydi.

Jamiyat hayotining iqtisodiy-siyosiy sohasida simmetriya va asimmetriya barqarorlik va muvozanat iqtisodiy-siyosiy tizimlarning simmetrik tamoyillarida namoyon bo'lsa, rivojlanish, islohot va innovatsion o'zgarishlar esa asimmetrik jarayonlar orqali yuzaga chiqadi. Simmetriya iqtisodiy tizimdagi me'yoriy tartib, siyosiy tizimdagi legitim boshqaruv, institutlarning muvozanatli ishlashini anglatrsa, asimmetriya iqtisodiy tengsizlik, siyosiy raqobat, kuchlar balansining o'zgaruvchanligi, boshqaruvdagi modernizatsiya jarayonlari va ijtimoiy differensiasiyani bildiradi. Jamiyat hayotining ma'naviy va madaniy sohasida simmetriya va asimmetriya qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar uyg'unligida simmetrik muvozanat barqarorlikni ta'minlasa, ijodkorlik, yangilikka intilish va tafakkur yangilanishi asimmetrik jarayonlar orqali yuzaga chiqadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik birligi”** deb nomlanib, unda jamiyat hayotining ijtimoiy sohasida simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo'lish shakllari, ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik xususiyatlari hamda ushbu tizimdagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlarining simmetrik jihatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan.

Jamiyatning ijtimoiy sohasida simmetriya va asimmetriyaga oid jihatlarni tadqiq etish uning iqtisodiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalariga nisbatan o'ziga xos yondashuvni talab etadi. “Agar iqtisodiy soha “moddiy ne'matlarning yaratilishi va taqsimlanishi”ni, siyosiy soha “hokimiyat va boshqaruvni”, madaniy-ma'naviy soha esa “g'oya va qadriyatlarni” ifodalasa, ijtimoiy soha – ularning barchasini inson hayoti va turmush darajasida mujassamlashtiradi”¹⁵. Demak, jamiyatning ijtimoiy sohasi insonlar tomonidan iqtisodiy o'zgarishlar qanday his etilishini, siyosiy qarorlar qanday qabul qilinishini, ma'naviy qadriyatlar qanday yashash uslubiga

¹⁵ Guy J., Roth S. What makes a difference? Symmetry as a sociological concept // Theory and Society. – Netherlands. – 2023. – №5. – P. 48.

aylanishini ko'rsatuvchi "oyna"dir. *Ijtimoiy sohada simmetriya – kutilgan tartib, muvozanat, o'zaro huquq va majburiyatlarning qoplanishi, ijtimoiy adolat me'yorlari, institutlarning barqaror ishlashi demakdir. Asimmetriya esa – tengsizlik, nomutanosiblik, ziddiyatlar, shuningdek, resurslardan foydalanishdagi imkoniyatsizlik elementlarini, uzilishlarini ko'rsatadi.* Dialektik nuqtayi nazardan, bu ikkisi bir-birini inkor etmaydi: simmetriya jamiyatni tutib turadi, asimmetriya esa uni harakatga keltiradi. "Barqarorlik va o'zgarish o'rtasidagi doimiy ta'sir ijtimoiy taraqqiyotning ichki "motori"dir"¹⁶.

Dissertant simmetriyaning ijtimoiy manbalarini institutsional, normativ va kommunikativ turlarga ajratadi va ularning quyidagi xususiyatlarini asoslab bergan: *institutsional simmetriya – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya tizimlarining hamma uchun ochiq va bashoratli ishlashini anglatadi.* Bunda fuqarolar "qoidalar adolatli" degan hissiy ishonchni his qiladi;

normativ simmetriya – huquq va majburiyatlarning muvozanati, hamkorlik me'yorlari, birdamlik odatlarini xarakterlaydi;

kommunikativ simmetriya – ijtimoiy muloqotning ochiqligi, jamoatchilik muhokamasi va fuqarolik ishtirokining real imkoniyatidir.

Ijtimoiy simmetriyaning bu uch yo'nalishi tutashganda ijtimoiy maydonda "ko'rinmas muvozanat" hosil bo'lib, ijtimoiy kapital ortadi, ishonch mustahkamlanadi, qarorlarni jamiyat tomonidan qabul qilish tendensiyasi kuchayadi.

Tadqiqotchi fikricha, har bir ijtimoiy simmetriyaning me'yor mavjud bo'lishi kerak, aks holda ijtimoiy tizimda yuzaga keladigan haddan tashqari simmetriklik yangilanish impulslarini susaytiradi, natijada yangi ehtiyojlar va yangi subyektlar "joy topa olmaydi". Ushbu jarayonda asimmetriya yangilanish uchun zarur bo'lgan "sinish nuqtalari"ni hosil qiladi. Masalan, tez urbanizatsiya shahar va qishloq o'rtasidagi imkoniyat tafovutini keskinlashtirib, ta'lim va infratuzilmada yangi yechimlarni talab qiladi, raqamli transformatsiya "raqamli tafovut"ni keltirib chiqarib, ko'nikmalarni qayta taqsimlash siyosatini maydonga olib chiqadi, gender tengsizliklari ijtimoiy me'yorlarni qayta ko'rib chiqishga majbur etadi. Ya'ni asimmetriya – muammo bo'lishi bilan birga, innovatsiya va islohotlarni amalga oshirish ehtiyojini ham tug'diradi.

Tadqiqotda jamiyat hayotining ijtimoiy sohasidagi simmetriya va asimmetriyaga oid jihatlarni o'rganishdan tashqari, ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik xususiyatlari ham tadqiq etilgan. Jamiyat ijtimoiy sohasidagi simmetriya va asimmetriya bilan ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik xususiyatlari orasidagi fundamental farqlar mavjudligini quyidagicha izohlangan:

- ijtimoiy sohaga xos simmetriya – insonlar o'rtasidagi teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolatning qaror topishi, barqarorlik va uyg'unlikni;

- ijtimoiy asimmetriya esa, ijtimoiy sohadagi tabaqalanish, iqtisodiy tengsizlik, gender nomutanosiblik, yoshlar va keksalar o'rtasidagi imkoniyatlar farqini;

- ijtimoiy tizim esa mazkur jarayonlarning strukturaviy asosini tashkil qiladi.

¹⁶Мантатов В.В. Философия устойчивого развития: диалектика и реализм // Вестник Бурятского государственного университета. – Улан-Удэ. – 2017. - №5. – С.9.

“Ijtimoiy tizim oila, ta’lim, din, huquq, ommaviy axborot vositalari kabi institutlarni o‘z ichiga olgan murakkab mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatadi”¹⁷. Bu tizimda simmetriya institutlarning uyg‘un ishlashi, boshqaruvning samarali bo‘lishi, jamiyat ehtiyojlariga mos keluvchi siyosatning olib borilishi orqali, asimmetriya esa tizim ichidagi disbalanslarda masalan, institutlarning zaiflashuvi, boshqaruvning samarasizligi, xalq ehtiyojlari va davlat siyosati o‘rtasidagi nomutanosibliklarda namoyon bo‘ladi.

Dissertant fikriga ko‘ra, ijtimoiy soha mazmun jihatdan insonlar hayotining bevosita ko‘rinishlarini ifodalasa, ijtimoiy tizim ularni boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi strukturaviy asosdir. Demak, ijtimoiy sohaga xos asimmetriya jamiyatdagi tengsizliklar orqali yuzaga chiqsa, ijtimoiy tizimdagi asimmetriya esa bu tengsizliklarni tartibga solishdagi nomutanosibliklardan kelib chiqadi. Ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini o‘rganish jamiyatning ichki harakat mexanizmlarini anglash, islohotlar samaradorligini baholash, ijtimoiy adolat va barqarorlikka erishishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish hamda amaliy takliflar ishlab chiqish va ijtimoiy taraqqiyotning ilg‘or falsafiy modelini shakllantirish imkonini beradi.

Jamiyatning asosiy tayanch ustunlari hisoblangan ijtimoiy institutlar – oila, ta’lim, siyosat, iqtisod, madaniyat – hamisha ichki muvozanat va tashqi o‘zgarishlar o‘rtasida yashaydi. Ushbu ijtimoiy institutlarning faoliyati doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda ham barqaror qolishi uchun o‘z-o‘zini tashkillashtirish mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish va bunda fraktal simmetriyaning metodologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertant simmetriya barqarorlik va tartibni, asimmetriya esa o‘zgaruvchanlik va murakkablikni ifodalasa, fraktallik esa ijtimoiy tuzilmalarning turli darajalarida o‘z-o‘zini takrorlovchi tuzilmalar asosida rivojlanishini tushuntiradi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun simmetriya va asimmetriya o‘rtasidagi dinamik muvozanat zarur. Bu tamoyillar ijtimoiy jarayonlarning murakkabligini va har bir o‘zgarishning butun tizimga ta’sirini tushunishda asosiy rol o‘ynaydi.

Jamiyat murakkab va ko‘p darajali tashkil etuvchilarga ega bo‘lgan fraktal tuzilmalardir. Dissertant, ushbu fraktal tuzilmalarga misol qilib, har bir kichik guruh (oila, do‘stlar davrasi) butun jamiyatning kichik modeli ekanligini, turli darajadagi ijtimoiy aloqalar (mahalliy, mintaqaviy, global) o‘xshash strukturalarga ega bo‘lishini, ijtimoiy aloqalar turli masshtablarda bir xil tamoyil asosida tuzilganligini keltiradi. Shuningdek, tadqiqotda kichik guruhlar (oilalar, jamoalar) va yirik guruhlar (millat, davlatlar) tuzilmasi o‘xshashlik tamoyillarga asoslanishi, bunda oila – birlamchi ijtimoiy birlik ekanligini, oilaning o‘zida ham rollar va aloqalar mavjudligi (ota-ona, farzand, qarindoshlar), bu tuzilma jamiyat darajasida ham kuzatilishi (rahbariyat, fuqaro, jamoat tashkilotlari) ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Dissertant o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonlari ham fraktal tizimlarning asosiy xususiyatlaridan biri ekanligiga e’tibor qaratib, bu jarayonda tizim o‘zining

¹⁷Марарица В.Ф. Социально-философский анализ трансформации социальных систем // Вестник Мурманского государственного технического университета (МГТУ). – Мурманск, Россия. – 2006. – № 1, – С. 73.

ichki qonuniyatlari va tamoyillari asosida tartib hosil qilishini, natijada murakkab strukturalar o‘z-o‘zidan shakllanishini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, dissertant ijtimoiy fraktal tizimlardagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish faqat jamiyatning yetakchiligidagi kuch tuzilmalarining tashkiliy ongli xatti-harakatlari tufayli yuzaga kelishini inkor etib, bu jarayon tashqi boshqaruv yoki markaziy nazorat talab qilmasligini izohlab beradi hamda fraktal tizimlardagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish murakkablik va tartibning tabiiy uyg‘unligi orqali amalga oshirishini mavjud ijtimoiy voqeliklar misolida ko‘rsatib beradi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, ijtimoiy ong simmetriyasi totuvlik va taraqqiyotga, asimmetriya esa ziddiyat va inqirozlarga olib keladi. Ularning uyg‘unligi ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Insonni anglash – jamiyatni tushunish, tahlil qilish esa inson mohiyatini chuqurroq idrok etishga yordam beradi. Fraktallik konsepsiyasi bu murakkab munosabatni tushuntirishda universal kalit bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, “inson – jamiyatning fraktal ko‘zgusi” degan g‘oya nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega.

Ijtimoiy tizimning simmetrik xususiyatlari undagi barqarorlik, muvozanat va ijtimoiy institutlarning o‘zaro uyg‘un faoliyatini ifodalasa, asimmetrik xususiyatlari esa ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi va o‘zgarishlar orqali yangilanishni ta’minlaydi. Jamiyatning o‘z-o‘zini tashkillashidagi fraktallik xususiyatlari ijtimoiy tizimning har bir bo‘g‘ini – oila, mahalla, hududiy birlik va umummilliy daraja – o‘zaro takrorlanuvchi, lekin mazmunan boyib boruvchi shaklda qayta namoyon bo‘ladi. Natijada, bu fraktallik tuzilishi jamiyatning murakkabligi va barqarorligini ta’minlab, uni o‘zgarish va rivojlanishga ochiq bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etishga imkon beradi hamda jamiyatning simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini o‘rganishda fraktal yondashuv muhim falsafiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida simmetriya va asimmetriya birligining o‘rni”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi simmetriya va asimmetriya birligining o‘ziga xos xususiyatlari hamda Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy islohotlarda simmetriya va asimmetriyaning sinergetik uyg‘unligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari tadqiq etilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi simmetriya va asimmetriya birligiga oid konseptual g‘oyalar va pragmatik yondashuvlar unda belgilangan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda taraqqiyot strategiyasining asosida yotgan quyidagi g‘oyalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

birinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;

ikkinchidan, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

uchinchidan, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

to‘rtinchidan, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

bashinchidan, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash¹⁸.

Dissertant "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi "barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish" g'oyasini jamiyatimizdagi iqtisodiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlarni va farqlarni kamaytirish orqali respublikaning barcha hududlarini, tizimning barcha sohalarini o'zaro mutanosib taraqqiy etishini ta'minlash, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirish masalalari kontekstida ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil etadi hamda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan pragmatik islohotlar misolida asoslaydi¹⁹. Jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori darajadagi daromadga ega bo'lgan qatlam vakillari bilan kam ta'minlangan aholining hayot sifati o'rtasida o'ziga xos tarzda ma'lum tafovutlar va farqlar mavjud.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining "aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish" g'oyasi jamiyatimizdagi har bir shaxs uchun o'qitishning milliy va zamonaviy tendensiyalari uyg'unligi asosida tarkib topgan sifatli ta'lim, samarali va tezkor tibbiy xizmat va har tomonlama ishonchli bo'lgan barqaror ijtimoiy himoya tizimining mavjudligini aks ettiradi²⁰. "Agar biror jamiyatdagi bolalar ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, millati, tili, dinidan qat'iy nazar teng darajada bilim olish imkoniga ega bo'lsa, agar bemor bo'lgan fuqaro chekka qishloqdami yoki shahar markazida bo'ladimi, bir xil sifatdagi tibbiy xizmatdan foydalansa yoki kam ta'minlangan, imkoniyati cheklangan yoki yolg'iz insonlar o'zini himoyalanganini chuqur his etsa – bu ijtimoiy simmetriyaning amalda namoyon bo'lishidir"²¹. Demak, ijtimoiy simmetriyani ta'minlash har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertant har qanday jamiyatning real ijtimoiy voqeligida simmetriya o'zining bunday yuqori darajasiga ega bo'lolmasligi, bunday darajadagi simmetriya ideal holat modeli ekanligini ta'kidlab, hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy farqlar, raqamli texnologiyalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi tengsizliklar kabi bir qator nomutanosibliklar tizimda ijtimoiy asimmetriya mavjudligini namoyon etishini izohlab beradi. Shuningdek, strategiyaning maqsadi aynan mana shu asimmetrik tuzilmalarni tan olish va ularni simmetrik tizimga aylantirishdan iboratligini ta'kidlaydi hamda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan izchil amaliy harakatlar misolida asoslab bergan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining "aholi uchun qulay ekologik sharoit yaratish g'oyasi" tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni tiklash va o'zaro

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

¹⁹ Bekpo'latov U.R. Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy islohotlarda simmetriya va asimmetriya sinergetik uyg'unligining falsafiy tahlili // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2025. – №9. – B.349-355.

²⁰ Bekpo'latov U.R. Simmetriya va asimmetriya birligi kontekstida "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi g'oyalarning ijtimoiy falsafiy tahlili // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari elektron jurnali. Toshkent, 2025. – № 7 (5-jild). –B. 79-85.

²¹ Горшков М.К., Козырева П.М., Пэйлинь Ли., Черныш М.Ф. Проблемы социального равенства и справедливости в России и Китае. – М.: Новый Хронограф, 2021. – С.316.

uygʻunlik tamoyillari asosida faoliyat olib borishni nazarda tutadi²². Tabiat – inson hayotining manbai, jamiyat esa oʻsha manba bilan uygʻunlikda yashashi lozim boʻlgan tizimdir. Shu nuqtai nazardan dissertant, ekologik jarayonlarga simmetriya va asimmetriya tushunchalari orqali nazar tashlash, ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini anglash katta ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi. Tadqiqotda fuqarolarning tabiat qonunlariga muvofiq yashashi va ijtimoiy qatlamlar hamda avlodlar oʻrtasida ekologik adolat mexanizmlarini taʼminlash gʻoyalari ijtimoiy simmetriyaning ham nazariy, ham amaliy ifodasi sifatida qaralgan. Shuningdek, har qanday jamiyat oʻzining iqtisodiy potensialini barqaror taraqqiy ettirish uchun sanoat korxonalariga ehtiyoj sezadi. Natijada, ushbu korxonalarining ekologik barqarorlikka koʻrsatadigan salbiy taʼsir ulushi boshqa texnologiya taʼsirlariga nisbatan juda katta boʻladi. Aynan shu sababli sanoat hududlari va nisbiy ekologik toza joylar oʻrtasida yetarlicha farqlar hamda mavjud resurslardan foydalanish imkoniyatlarida ijtimoiy tengsizliklar yuzaga keladi va shu jihatlar ekologik asimmetriyaning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradi.

Tadqiqotda texnologik taraqqiyot, sanoatlashtirish va cheksiz isteʼmolchilik tufayli tabiat va jamiyat oʻrtasidagi uygʻunlik buzilganligi, natijada iqlim oʻzgarishi, resurslarning tugashi, biosferaning yemirilishi kabi ekologik asimmetriyaning namoyon boʻlish shakllari izohlanadi. Shu bilan birga bu ekologik asimmetriyaning ogʻir oqibatlarini koʻproq kambagʻal davlatlarga va himoyasiz aholiga taʼsir qilayotganligi, bu esa ekologik muammolarning nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy tengsizlik bilan ham bogʻliqligi masalalari falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Insoniyat davlatchilik tarixida har qanday siyosiy tizimning eng yuksak gʻoyasi zamonaviy davlatni barpo etish boʻlgan. Bu gʻoya, ayniqsa, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish konsepsiyasida oʻzining aniq ifodasini topgan²³. “Adolatli davlat modeli mohiyatan simmetriya tamoyillari asosida quriladi yaʼni fuqarolarning qonun oldida tengligi, turli imkoniyatlari adolatli taqsimlanishi taʼminlangan boʻladi. Bunday davlatda xizmatlar ochiq, raqamli, byurokratiyadan holi va inson manfaatlariga yoʻnaltirilgan boʻladi”²⁴.

Tadqiqotda har qanday jamiyat hayotida turli xarakter va darajadagi asimmetriya elementlari yaʼni tengsizliklar va nomutanosibliklar ham mavjud boʻlishiga eʼtibor qaratiladi. “Ijtimoiy asimmetriya davlatning fuqarolar ustidan qattiq nazoratni oʻrnatganligi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vakolat va imkoniyatlarning bir guruh “qoʻlida” toʻplanishi, mavjud qonunlar esa, aksariyat hollarda iqtisodiy-siyosiy hukmron doiralarning manfaatlariga yoʻnaltirilganligida namoyon boʻladi”²⁵. Bu jihatlar asimmetriyaning huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy koʻrinishlari boʻlib, tizimdagi mavjud muammolarni real anglash imkonini beradi va ularni bartaraf etishning eng samarali yoʻllarini aniqlashga yoʻnaltiradi.

²² Bekpulatov U.R. Socio-philosophical analysis of symmetry and asymmetry // Journal of Multidisciplinary Academic and Practice Studies. 2025, Vol, 3 No3, – P. 603-611.

²³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

²⁴ Rawls J. Political Liberalism. – New York.: Columbia University Press, 2005. – P.182.

²⁵ Grigoriu I. Social Asymmetry – An Operative Concept of Political Philosophy // LUMEN Proceedings. – Iași, Romania. – 2020. - № 5, – P. 189.

Dissertatsiyada adolatli va zamonaviy davlat barpo etish simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi uzviy dialektik harakat jarayoni ekanligi hamda mavjud asimmetriyalarni tan olish va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratib, ochiq muloqot olib borishga va inson qadr-qimmatini yuksaltirishga yo'naltirilgan davlat modeli shakllantirish imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib beriladi. Shuningdek, ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar, adolatga asoslanilgan boshqaruv tizimi hamda faol jamoatchilik nazorati orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat qaror topishi ta'kidlab o'tilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining beshinchi g‘oyasi – suverenitet va xavfsizlikni kafolatlash – davlat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim yo‘nalishdir²⁶. Ushbu g‘oyani ijtimoiy-falsafiy jihatidan tahlil qilishda simmetriya va asimmetriya birligi tamoyili asosiy nazariy mezon sifatida namoyon bo‘lib, bunda simmetriya – ichki siyosiy muvozanat, fuqarolarning teng huquqi, tashqi siyosatda diplomatik barqarorlik, huquqiy tizimning uyg‘unligi kabi jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda suverenitet va xavfsizlikni kafolatlash jarayonlarda asimmetriyaning ham yuzaga kelishi va u turli tahdidlar (geosiyosiy bosimlar, kiberxavf va ichki ziddiyatlar) da aks etishi hamda bu jihatlarda davlat mustahkamligini izdan chiqarishi mumkinligi, shuning uchun ularga qarshi strategik, ongli va muvozanatli choralar zarurligi asoslab berilgan. Strategiyada bu ikki kuchning birligi ifodalaniib, ijtimoiy-falsafiy jihatdan asimmetrik tahdidlar tan olinadi, ammo ularga simmetrik, barqaror yondashuv bilan javob beriladi. Bu esa suverenitetni zamon talablari asosida saqlashga xizmat qiladi. Demak, suverenitet va xavfsizlikni ta'minlash faqat kuch bilan emas, balki simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi dialektik muvozanatni saqlash orqali amalga oshadi. Bu yondashuv strategiyaning chuqur ijtimoiy-falsafiy asosini tashkil etadi. Yangi O‘zbekiston aynan shu dialektik birlikka asoslangan ijtimoiy tizim ekanligi, adolat, huquqiy tenglik va ijtimoiy imkoniyatlar simmetriyasini saqlagan holda, tafovutlar va ijtimoiy muammolarni tan olib, ularni o‘zgarish resursiga aylantirilayotganligi misollar orqali asoslab berilgan.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar murakkab, ko‘p qatlamli, barqarorlik va yangilanish o'rtasidagi murakkab muvozanatga asoslangan ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu islohotlar zamirida, bir tomondan, ijtimoiy simmetriya, ya'ni tenglik, adolat, barqarorlik va tizimli uyg‘unlikka intilish bo‘lsa, boshqa tomondan esa ijtimoiy asimmetriya – mavjud nomutanosibliklarni aniqlash, tan olish, ularni bartaraf etish yo‘lida erkin harakat va yangilikka ochiqlik mavjud. Mazkur ikki kuch bir-biriga zid emas, balki sinergetik tarzda o‘zaro uyg‘unlashgan va bu uyg‘unlik ijtimoiy tizimlarning barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Dissertant fikricha, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining markaziy g‘oyasi bo‘lmish “inson qadri” konsepsiyasi ijtimoiy simmetriya va asimmetriya sinergetik

²⁶ Bekpo‘latov U.R. Ijtimoiy borliq tuzilishining dissimmetrik paradigmasi // Журнал ренессанса Центральной Азии / Journal of Central Asian Renaissance. – Toshkent, 2024. - Volume 5, Issue 2. -B.28-35.

uyg'unligining eng yorqin ifodasidir²⁷. Bu konsepsiya orqali har bir inson shunchaki statistik birlik sifatida emas, balki o'z ehtiyojlari, qadriyatlari, orzu-umidlari va imkoniyatlari bilan yagona ijtimoiy mavjudot sifatida e'tirof etilmoqda. Demak, bu yerda simmetriya – barcha fuqarolarning teng huquqli va teng imkoniyatli ekanligi, asimmetriya esa – har bir insonning o'ziga xos ehtiyojlari, hududiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlariga qarab alohida yondashishni anglatadi. Tadqiqotda bu holat ijtimoiy-falsafiy jihatdan “differensial adolat” (ya'ni tenglik emas, adolatli farqlilik) tamoyiliga asoslanadi. Aynan mana shunday yondashuv orqali jamiyatda “muvozanatli har xil”lik hosil qilinmoqda. Bu esa “sinergetik jamiyat modelining falsafiy asosidir”²⁸. Har bir qatlam, har bir shaxs umumiy jamiyat barqarorligiga o'z o'rnida hissa qo'shadi, lekin bu hissa individual ehtiyojlar va farqlarni e'tirof etgan holda yuzaga chiqadi. Shu tariqa, Yangi O'zbekiston islohotlari – bu mavjud nomuvozanatliklarni inkor etmasdan, ularni ijtimoiy muvozanat sari yo'naltirish, turlicha ijtimoiy holatlarni sinergetik uyg'unlikda rivojlantirish asosida birlashtirish va ularni barqaror ijtimoiy tizimga aylantirishga yo'naltirilgan strategik va falsafiy harakatlardir. Bu islohotlarning poydevorida esa aynan simmetriya va asimmetriya birligining sinergetik mohiyati yotadi.

Tadqiqotda Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotida simmetriya va asimmetriya sinergetik uyg'unligining ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi, rostlovchi, birlashtiruvchi, yo'naltiruvchi kabi funksiyalarga ega ekanligini ijtimoiy falsafiy jihatdan asoslab beradi. Jumladan:

simmetriya va asimmetriya birligining uyg'unlashtiruvchilik funksiyasi jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini murosa asosida kelishtirib, ularni umumiy ijtimoiy fazoga integratsiyalashni ko'zlaydi. Bunda davlat faqat markaziy boshqaruv subyekti emas, balki siyosiy muvofiqlashtiruvchi “platformaga” aylanadi. Bu “platforma” – qarama-qarshi ehtiyojlarni ziddiyat asosida emas, balki o'zaro dialog va konsensus asosida uyg'unlashtirish maydoni bo'lib xizmat qiladi;

Simmetriya va asimmetriya sinergetik uyg'unligining ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchilik funksiyasi jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlar, nomuvozanatliklar, beqarorliklar va ziddiyatli holatlarni institutsional, normativ va huquqiy mexanizmlar orqali muvozanatga keltirishga qaratilgan kompleks mexanizmdir.

Simmetriya va asimmetriya sinergetik uyg'unligining rostlovchi funksiyasi jamiyatdagi mavjud yoki yuzaga kelayotgan asimmetrik holatlarni (ijtimoiy tengsizlik, nomutanosiblik, muvofiqlikning buzilishi) tan olish, tahlil qilish va simmetrik yo'sinda muvozanatga keltirishga qaratilgan falsafiy-amaliy mexanizmdir.

Simmetriya va asimmetriya sinergetik uyg'unligining birlashtiruvchi funksiyasi jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, etnik yoki mafkuraviy tafovutlarni inkor etmasdan, balki ushbu farqliliklarni yagona ijtimoiy fazo, umumiy

²⁷ Bekpo'latov U.R. Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy islohotlarda simmetriya va asimmetriya sinergetik uyg'unligining falsafiy tahlili // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2025. – №9. – B.349-355.

²⁸ Шевлоков В.А. Устойчивое развитие общества: синергетический подход // Вестник КРАУНЦ. Физико-математические науки. – Красноярск. – 2016. – № 2. – С. 66.

qadriyatlar, strategik manfaatlar va milliy g'oya atrofida birlashtirishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy va mafkuraviy mexanizmdir.

